

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ROMAN – GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI

MAVZU: BUGUNGI ITALIYANING LINGVISTIK
HOLATI: ITALIYAN DIALEKTI VA
ITALIYAN ADABIY TILI

Roman – german filologiyasi fakulteti


4- kurs o`zbek 06- guruh talabasi

Sanakulova Maftunaning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar : o`qituvchi Xamraqulova F

Kontsultant : f. f. n. Suvonova N



Samarqand-2014

M U N D A R I J A :

KIRISH	3
I BOB. TIL VA DIALEKT TUSHUNCHALARI , ITALIYAN TILI VA DIALEKTI.....	
1. Italiyan dialekti va uning qo`llanishi	
2. Italiyan dialektini tasnif qilgan tilshunoslar va ularning ilmiy ishlari..	
3. Adabiy til tushunchasi, Italiyan adabiy tili	
I bobga xulosa	
 II bob BUGUNGI ITALIYAN TILI	
1. Italiyada muxojirlar tili.....	
2. Italiyan tili chet tili sifatida.....	
II bobga xulosa	
 X U L O S A	
Foydanilgan ilmiy adabiyotlar ro`yxati.....	

KIRISH

So`ngi yillarda fan va ta`lim sohasiga alohida e`tibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy sohalarida ma`suliyatli vazifalarni qo`ydi. Bunday vazifalardan biri chet tillarni o`rganish va o`rgatishdir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ta`biri bilan aytganda, “ Bugun jahon hamjamiyatidan o`ziga munosib o`rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o`z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo`qdir ”¹

Darhaqiqat , xorijiy tillarni jumladan, Italian tilini har tomonlama chuqur o`rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo`lmog`i lozim. Shunday ekan, biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Bugungi Italiyaning lingvistik holati; Italiyan dialekti va adabiy tilini o`rganishni oldimizga maqsad qilib qo`ydik.

Mavzuning dolzarbligi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi bugungi Italiyada lingvistik holatning struktur – semantik jihatdan tavsiflashdan iborat ekanligi bilan izohlanadi. Italiyan dialektining qo`llanishini Italiyan tili misolida ko`rib chiqish, Italiyan dialekti va adabiy tilini chuqur o`rganishga, unga xos lingvistik mohiyatini tavsiflashga, qolaversa, ularni badiiy matnlarda o`qib tushunish jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi.

**Muammoning o`rganganlik darajasi.** Tilshunoslikda Italiyan milliy tilining uchta katta ichki manbai ( dialekti ) va adabiy tiliga doir muamolar avvalombor Tullio De Mauro va bir qancha dialoktologlar tomonidan keng tarzda tadqiq qilingan. Dialekt va adabiy tilning o`ziga xos leksik semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari batafsil ishlab chiqilgan. Biroq bizning tadqiqot bu xususdagi ma`lumotlarni umumlashtirgan holda ularni soda

¹ I. A. Karimov Barkamol avlod – “O`zbekiston taraqqiyoti poydevori” .- Toshkent O`zbekiston nashriyoti 1998 YIL 8 bet

misollar va tushuntirishlar orqali dialekt va adabiy tilga xos bo'lgan xususiyatlarni amaliy tarzda izohlashi bilan ajralib turadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad umumiy o'xshash lingvistik xususiyatlarni belgilash asosida dialektlarning ma'lum hududda tarqalish xaritalarini tuzish va dialektlarni tasnif qilish.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot oldiga qo'yilgan masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga etibor qaratiladi:

- Italiyan lingvistikasining asosiy mohiyati.
- Italiyan dialektining hozirgi zamon tilshunosligida tutgan o'rnini hamda tilning boyish manbai ekanligini tavsiflash.
- Italiyan dialektlarini tasniflash.
- Ayrim dialektlarining fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiylarini har tomonlama tavsif qilish.
- Miliy tilning paydo bo'lishi va taraqqiyotida dialektlarning tutgan o'rnini va shu milliy tilga asos bo'lgan dialektlarni aniqlash.
- Dialektlarning o'zaro munosabati, shuningdek, ularning adabiy til va qardosh tillarga bo'lgan munosabatlarini belgilash.
- O'xshash xususiyatlariga ko'ra dialektlarning tarqalish chegarasini aniqlash.

Tadqiqot obekti va predmeti. Tilshunoslikning eng serqirra jabhalaridan biri hisoblangan bugungi Italiyan lingvistik holati tadqiqot obektini tashkil etsa, undagi dialekt va adabiy til esa tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. Tilshunoslikning dialektologiya borasidagi nazariy yo'nalishlari hamda Franchesko Cherubini (1789-1851), Pietro Monti (1794-1856), Gabriele Rosa (1812-1897), Carlo Tenca (1816-1883), Carlo Cattaneo (1801-1869), Bernardino Biondelli (1804-1886), Giovenale Vegezzi - Ruscalla (1799-1883), Clemente Merlo (1879-1960), Gerhard Rohlfs (1892-1986), Giovan Battista Pellegrini (1921-3.2.2007) Graziadio Izaia Ascoli (1829-1907) Berruto, Spitzer, singari tilshunoslarning

nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot oldiga qo`ygan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda tasviriy dialektologiya tahlil qilish metodlaridan foydaniladi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar quyidagilardan iborat:

- Italiyan adabiy tilining tayanch dialekti;
- Italiyan dialektlarining adabiy til bilan munosabatining yaqinlashuviga xizmat qiluvchi omillar;
- Italiyan dialektlarini tasniflash;
- Italiyan dialektlarining tarqalish hududlari;
- Italiyan dialektlarining o`rganilishi va dialektolog olimlar haqida ma`lumot berish.
- Bugungi Italiyan tili va ikkinchi chet tili sifatida o`rganilayotganligi haqida ma`lumot berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Umumiy o`xshash lingvistik xususiyatlarni belgilash asosida dialektning ma`lum hududda tarqalish xaritalari tuzildi va dialektlar tasnif qilindi va tarjima tavsifiga hissa qo`shildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Umumiy o`xshash lingvistik xususiyatlarni belgilash asosida dialektlarning ma`lum hududda tarqalish xaritalarini tuzish va dialektlarni tasnif qilish imkonini beradigan farazlar umumlashtirildi. Xususan, bitiruv malakaviy ishda Italiyan dialektlarining adabiy til bilan munosabatining yaqinlashuviga xizmat qiluvchi omillar tavsiflash, Italiyan dialektlarining tarqalish hududlarining o`ziga xos xilma - xilligi namoyon etish.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi qo`yilgan vazifalarni ketma – ket izchilligiga asoslanib, u kirish, ikki bob, xulosa, foydanilgan ilmiy adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB

TIL VA DIALEKT TUSHUNCHALARI, ITALIYAN TILI VA DIALEKTI

Til malum xalq tomonidan ishlatiladigan, uzoq tarixga ega bo'lgan xodisani tushunamiz. Til odamlarning bir - birlari bilan muomlada bo'lishi uchun yordam beradigan eng muhim vositadir. Odamlar til vositasida o'z fikrlarini xis tuyg'ularini ifodalaydilar. Insoniyat jamiyatini shaklanishida tilning roli beqiyosdir. Insonning ongi, mehnat jarayonida paydo bo'lgani kabi til ham insonlarning mehnat qilishi jarayonida paydo bo'lgan. Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir davrida odamlar mehnat qilishlari jarayonida bir – birlariga o'z fikrlarini, xis - tuyg'ularini bayon qilish istagi tug'ilgan va bu dastlabki oddiy tilning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan.

Bugungi kunda yer yuzi aholisi 6, 7 mlrd ni tashkil etsa ular o'zaro muloqot qilayotgan 2979 dan ortiq til mavjuddir, Yevropadagi 23 tilning biri bo'lmish Italiyan tili va dialekti haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ularni soda misollar va tushuntirishlar orqali izohlab o'tamiz. Italiyan tili juda boy adabiy ananaga egadir. Italian dialektlari g'oyat xilma - xil va juda murakkab. Italiyan tilini o'rganish, uning turli davrdagi taraqqiyat bosqichlarini belgilash uchun boy material beradi. Italiyan tilini o'rganar ekanmiz, biz avvalom bor uni teranroq o'rganish uchun turkumlarga ajratamiz.

Tilning paydo bo'lishi

Til tarixi

Til va jamiyat

Til haqida dastlabki ma'lumotlarni biz turli mintaqalardagi toponomik joylarda va buyumlarda (qoya toshlar, daraxt po'stloqlari, hayyvonlar terisi va boshqa buyumlarda) saqlanib qolgan yozuvlardan bilishimiz mumkin. 390 – yilda Italiyan tili sharqiy va g'arbiy qismga bo'linadi. Sharqiy qismga

hind – yevropa tilida gaplashuvchi xalqlar kirgan, gʻarbiy qismga esa dialektlarda soʻzlashuvchilar kirgan. Liguriada va Sardeniyada soʻzlashuvchilar Toskanadagi etrusklar bilan oʻzaro substrakt boʻlgan, bundan tashqari muloqotdagi boshqa tillar (lotin, osko-umbrio, grek, gall va venet tillari) butunlay farq qilgan. Bular hind – yevropa tillar oilasidan oldingi tillar hisoblanadi yaʼni qadimiy hind yevropa tillaridir. Italiyan tili hozirgi vaqtda hind Yevropa tillar oilasining roman (fransuz, provinsal, Italian, ispan, portugal, rumin, moldavan tillari, va oʻlik lotin tili) turkimiga kiradi.

Italiyan tilining kelib chiqishi bevosita lotin tili bilan bogʻliq. Lotin tili evolyutsiasining buzilmaganligi italian tilining paydo boʻlishiga olib keldi. Yarim orolning tili va dialekti oʻzaro jonli lotin tili asosida yuzaga keldi. Lotin tilining asta – sekin Italiyan tili sifatida qayta tarkib topishi VI X asrlarga toʻgʻri keladi. Lotin tili hind yevropa tillari oilasining italiy tillari guruhiga mansub. Italiyaning oʻrta qismidagi Latsiy viloyatida miloddan avvalgi 8- asrda yashagan lotin qabilasining tili. Lotin tilining asta sekin rim hududidan tashqariga tarqalishi va qadimiy italiyaning boshqa tillarini siqib chiqarishi miloddan avvalgi 3 - 4 asrlarga toʻgʻri keladi. Apenin yarim orolining lotinlashuvi (yunon tili hukumron boʻlgan janubiy Italiya va Sitsilia bundan mustasno) miloddan avvalgi 1- asrda yakunlandi. Rim imperiyasining gullab yashnashi, yangi yangi mustamlakalarni bosib olinishi natijasida lotin tili shimoliy afrika, ispan galliya, german dunay boʻyi, hududlariga tarqaldi. Lotin tilidagi eng qadimgi yodgorliklar milloddan avvalgi 3-asrga mansub. Qadimgi davr lotin tili tarixi bir biridan u yoki bu darajada farqlanuvchi 5 ta davrga ajratiladi.

1. Eng qadimgi lotin tili (milloddan avvalgi 6-4 asrlar)
2. Klassik davrgacha boʻlgan lotin tili (mil. Av. 3-2 asrlar)
3. Klassik “ oltin ” lotin tili davri (mil av 1 asr) juda boy leksika va rivojlangan adabiyoti bilan ajralib turadi.
4. Klassik davrdan keyingi “ kumush ” lotin tili davri (mil. Av 1 asr adabiy tilning fonetik va morfologik meyorlari uzil kesil shakllanadi)

5. So`ngi bosqichdagi lotin tili ( 2- 6 asrlar yozuv tili bilan xalq so`zlashuv tili va xalqano lotin tili o`rtasida tafovut paydo bo`ldi.)

5 – asrda Rim imperiasi qulagandan keyin xalq so`zlashuv tilining mintaqaviy farqlanishi tezlashib, bu narsa 9 – asrga kelib alohida mustaqil roman tillari ( Italian, fransuz, Portugal, ispan, rumin , moldavan va boshqa tillar ) paydo bo`lishiga olib keldi. Yozma lotin tilining birligi saqlanib qolgan. U leksik jihatdan rivojlanishda davom etdi. Klassik lotin tilining asosiy lug`at tarkibi va grammatik qurulishi barqarorlashdi. Adabiy lotin tilining tarqalgan barcha hududlarida va mamuriy boshqaruv savdo tijorat, maktab tili edi. O`rta asrlarda butun g`rbiy yevropa umumiy yozuvtili bo`lib qo`llandi. 18-19 asrlargacha diplomatiya, ilm fan va falsafa tili, 20 - asrda esa katolik cherkovi tili, Vatikaning rasmiy tili bo`lib qoldi. Lotin tili yevropa madaniyati rivojida ulkan rol o`ynadi. Yevropa tillaridagi siyosiy ilmiy va texnik terminologik tizimlarining leksik jihatidan boyish va ko`payib borishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Lotin tili qadimiy hind – yevropa tillariga xos uni xett tili, hind-eron, kelt tillari bilan yaqinlashtiruvchi xususiyatlarni saqlab qolgan. Asosiy fonetik jihatlari unda unlilar cho`zilganligining fonologik tarqalishiga egaligi, urg`u so`zning oxiriga tushmasligi undoshlarning kuchsizlanib borishi kabilardan iborat. Morfologik xususiyatlari: fleksiyaning 5 turi mavjudligi, turlanishning 6 kelishikka asoslanishi fe`llarda 3 xil mayl (indiktiv, konyutiv, imperativ) va 2 xil nisbat (aktiv va o`rta passiv ) farqlanishi va boshqalar. So`z tartibida fe`l gap oxirida keladi. Lotin tili leksikasida yaqin qarindosh yoki noqarindosh qabilalar tillarining ta`siri saqlanib qolgan . Lotin tiliga yunon tili millodan avvalgi 3 - 1 asrlarda kuchli va davomli ta`sir ko`rsatgan. Lotin tili leksikasi, yunon tili bilan birga ilmiy terminologiya sohasida hanuz baynalminal terminlarni yaratishda manba bo`lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari tildagi bir qancha o`zgarishlar tilda ko`p ma`nolikka ham keltirib chiqargan lotin tilidagi tartib raqami *unus* ko`rsatish olmoshi *qualcuno*, va un *tali* noaniq artikl bo`lib keladi.

Italiyan tilini o`rganish Italiya tarixida chuqur iz qoldigan, XIV asrda yashab ijod qilgan Italiyan adibi Dante Aligierining nomi bilan bog`liqdir. Lotin tili Dante uchun ona tili bo`lsada Italiyan tilining rivojlanishida katta hissa qo`shdi, u o`zining mashxur asari “ Ilohiy Komedia” ( Nella Divina Commedia )sida Florensiada qo`lanilgan ko`p tillarni va xalq so`zlashuv tilini (oliy tabaqadagilar- lotin tilida, quyi tabaqadagilar Italiyan tilida) muomolari va kamchiliklarini keltirgan.

Yer yuzidagi tillarni tekshirish, o`rganish XVIII asrdan boshlangan va qiyosiy tarixiy metod asosida tillarning fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari bir biriga taqqoslab o`rganilgan. Dunyodagi hamma tillar eng asosiy belgilariga ko`ra ikki xil tasnif qilinadi. Genelogik ( kelib chiqish manbaiga ko`ra) tasnif tillar orasidagi fonetik, leksik, grammatik o`xshashlikka asoslanadi. Morfologik tasnif tillarning tuzilish tomonidan o`xshashligiga asoslanadi. Italiyan tilining ham Grammatik jihatdan tuzilishi, stilistik va fonetik jihati, so`zlardan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Tilning lug`at tarkibi va grammatik qurilishi takomillashdi, lekin u o`z fonetik tizimini, asosiy leksik tarkibi va grammatik qurulishini saqlab qoladi. Italian tilidagi so`zlar deyarli qo`sh undoshli bo`lib unli tovushlar bilan tugaydi. Urg`u so`zning oxiridan ikkinchi bo`g`inga tushadi. Egalik olmoshi artikl bilan keladi, gapda so`z tartibi erkin.

Italian tiliga chetdan kirib kelgan so`zlar qadimiy lotin tili va boshqa tillar bilan bog`liq:

Lotin tilidan - Vitium – vizzo; persona, buffalo

Grek tilidan – parabola, angelo, chiesa, martire;

Vizantianlardan – galea, gondola, molo, argano, basilico, bambagia;

Yevreylardan – sabato, osanno, alleluia, pasqua, manna;

Arab tilidan – arancia, limone, spinaci, zucchero, dogano, fondaco, magazzino, tariff, sultna, califfo, sceicco, ammiraglio, alchimia, alambicco, elisir, algebra, algoritmo, cifro, zero, intifada, burqa, kefiyah.

Fransuz tilidan – burro, cugino, giallo, giorno, mangiare, manicaretto, saggio, savio, cavaliere, gonfalone, usbergo, sparviere, levriere, dama, messere, scudiero, lingnaggio, liuto, viola, gioiello; XV asrda maresciallo, batteria, carabina, bignè, besciamella, ragù kabi soʻzlari kirib kelgan.

Nemis tilidan – Guerra, zanna, grinfia, stambecco, sapone, vanga, banda, guardia, elmo, albergo, spola, guercio, stanga, schiena, banca .

Ingliz tilidan – Tullio De Mauro lugʻtidagi soʻzlarning 8 % ni ingliz tilidan kirib kelgan soʻzlar tashkil qiladi.

Ispan tilidan – amaca, ananas, brio, cacao, ciocolata, condor, creanza, etichetta, guerriglia, lama, lazzarone, mais, parata, patata, posata, puntiglio, sfarzo, sussiego, zaino.

Portugal tilidan – banana, cocco, mandarino, pagoda.

Marifatchilik davrida – rivoluzione, giacobino, complotto, fanatico, ghigliottina, terrorismo.

1800- yillarda ristorante, casseruola, maionese, menu, patè, crepe, omelette, croissant (cucina), boutique, décolleté, plisse, griffe, prêt – à - porter, fuseaux (moda), boulevard, toilette, sarcasm, cinema, avanspettacolo, soubrette, boxeur, chasis.

1962 – yilda informatika fanining kirib kelishi bilan fanga oid soʻzlar ham kirib keldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin - kit, jeans, film, killer, partener, okay, puzzle, scout, west, punk, rock, budget, marketing, meeting, business, click, cliccare, computer, formattare, hardware, software, mouse, blog, goal, corner, cross, assist, baseball, basket kabi soʻzlar kirib kelgan.

Til taraqqiyoti juda murakkab hodisa, ayni paytda uning taqdiri jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bogʻlangan. Til asta sekinlik (evolyutsiya yoʻli) bilan taraqqiy etib boruvchi hodisadir. Maʼlumki, kishilik jamiyati bir tekisda rivojlanib bormaganligi sababli tillarning taraqqiyot yoʻllari ham har xildir. Hatto kishilik jamiyati XXI asrga qadam qoʻygan hozirgi zamonda ham taraqqiy etgan millatlar bilan bir qatorda, xalq tili darajasiga oʻsib yetmagan

ibtidoiy jamoa qabilalari ham mavjud. Kishilik jamiyati tarixi shuni ko'rsatadiki jamiyat a'zolarining avval urug'chilik – qabilalari, keyin elat tillari paydo bo'ladi. Har qaysi qabila o'ziga xos nom va xududlarni egallaydi. Qabila tili esa shu jamiyat jamoasining asosiy aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Til taraqqiyotidagi birinchi yo'nalish differentsiatsiya² hodisasidir. Qabiladagi kishilar soni ko'payishi bilan qabila aholisi o'troqlashib qolgan hudud qabilaning turli iqtisodiy narsalarga bo'lgan ehtiyojini qondira olmaydi va boshqa bir qancha sabablar tufayli qabila bo'linib ketadi. Turli qabilalar bo'linib chiqandan so'ng o'zlari ajralib chiqan oldingi qabilaning tilidan foydalanaveradi. Shunga qaramay ma'lum bir shart – sharoitlar natijasida ularning tillarida farqlar paydo bo'ladi. Asta sekin jamiyat taraqqiyotining muayyan bir bosqichida har bir yangi qabila o'z tiliga ega bo'ladi, ya'ni shevalar, lahjalar vujudga keladi. Bu esa tillarning shakllanishidagi birinchi eng asosiy yo'ldir, tillar taraqqiyotidagi ikkinchi yo'l integratsiya³ dir. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir davriga kelib turli obektiv sabablarga ko'ra umumiy dushmandan tabiiy ofatlardan saqlanish uchun ba'zi qabilalar qo'shilib ketadi va qarindosh qabilalarning uyushmasi paydo bo'ladi. Natijada asta sekin uyushgan jamoaning a'zolari tushunarli bo'lgan umumiy til yuzaga keladi. Jamiyat taraqqiyotining keying bosqichlarida hudud jihatidan bir muncha mustahkamlangan davlatlar paydo bo'ladi. Davlat paydo bo'lishi xalqlar o'rtasida turli – tuman munosabatlarning rivojlanishini olib keladi. Buning natijasida davlat hududida yashovchi barcha kishilar uchun muhim aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan xalq tili vujudga keladi.

Umumiy bir til davlatning shart sharoitlariga qarab shu davlatda yashovchi asosiy xalqlarga tushunarli bo'lishi mumkin. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda ko'rsatilishicha taxminiy hisoblarga ko'ra yer yuzida 5926 dan ortiq til shevalari mavjud bo'lib, shundan 500 dan ortig'i o'rganilgan.

² ajralish

³ Qo'shilib ketish

Dialekt bir millatga mansub bo`lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko`rinishidir. Dialekt adabiy tildan fonetik (tovush), leksik (so`z ), va grammatik ( gap qurulishi ) jihatdan farq qiladi. Dialektlarning faqat og`zaki shakli mavjud. Dialekt mateliallari (1- xarita. Situazione linguistica in Italia) Italiyan tili tarixi mutaxasislari uchun qimmatli manba bo`lishi bilan birga tarixchilarning Italiyan tarixini yoritishda muhim masalalarni hal qilishlarida yordam beradi. Chunki xalq dialektlari Italiyan xalqining madaniyat yodgorliklarida yetarli darajada qayd etilmagan, ayrim faktlar bizning davrimizgacha yetib kelgan. Dialekt shunday bir qatlamki, ular adabiy til va uning talablariga to`g`ri kelmaydi. Biroq ko`pgina hollarda dialektni tilning yuzaga kelishidagi asosiy ob`ekt sifatida qo`llab kelishadi. Dialektlarni quyidagi guruhlariga ajratib o`rganish maqsadga muvofiqdir.

1. dialektizmlar
2. professional til.
3. jargon

Dialektizmlar – dialektal qatlamga xos so`zlar. Ma`lumki kundalik turmushda kishilar bir- birlari bilan munosabatda bo`ladilar, ya`ni o`zaro fikrlashadilar, suhbatlashadilar, nimanidir inkor etadilar. Shu narsani alohida ta`kidlash lozimki, adabiy tilda o`qituvchi va o`quvchi nutqida, televideniya va radio diktorlari nutqida uchraydigan sheva unsurlari adabiy til qoidalariga zid bo`ladi. Odatda, sheva unsurlari umumxalq tiliga emas, balki shu umum tilning mahalliy ko`rinishlariga xos bo`lgan hodisa sanaladi. Ijtimoiy hayotda dialektizmlarning alohida o`rni bor, chunki dialektal so`zlar umumtil lug`at boyligining bir qismini tashkil etadi. Dialektal so`zlarning ma`lum bir qismi adabiy tilga tanlab olinadi va ular adabiy til uslubida qo`llaniladi. Demak, dialektalizmlar ijtimoiy hayotning turli tabaqasiga mansub shaxslar nutqiga xos bo`lib, ular o`ziga xoslikni berish maqsadida ishlatilar ekan. Shu o`rinda fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi jummalarni yodga olamiz

“Ulug` so`z san`atkori boyni ham, dehqonni ham o`z tilida gapirishga majbur qiladi ”.⁴

Professional til – bu til asosan, til paydo bo`lishining muhim omillariga asoslanadi ( adabiy til, hududiy dialekt ), lug`at tarkibda o`zining alohida o`rniga ega. Professional til har bir kasb hunarga xos ma`no kasb etadi. Professional tilda har bir kasbga doir mahsulotlarning turi alohida qo`llaniladi. Masalan, 10 dan ortiq mashina turlari qo`llaniladi ( kir yuvish, tikish, bo`yoq va pardoz berish) bu kabi terminlar professional nutqning o`ziga xos ijtimoiy ma`no kasb etishini anglatadi.

Jargon – ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiluvchi dabdabali yoki yashirin dialekt jargon deyiladi. O`tmishda savodsiz bo`lgan ommani ezuvchi sinf vakillari o`z niyatlarini amalga oshirish maqsadida kishilar uchun tushunarsiz so`zlardan foydalanib kelishgan. Odatda bunday so`zlar jargonlardir. Jargon bu fransuz tilidan olingan bo`lib, “ buzilgan til ” demakdir. Jargonlarning ijtimoiy muhitda tutgan o`rni shundaki, ular muayyan ijtimoiy sinf vakillari, mansabdor shaxslar, oddiy shaxslar o`rtasida yuz beruvchi jarayonlarni aks ettiradi.

Jumladan italiyan tilidagi quyidagi so`zlarni fikrimiz dalili sifatida keltiramiz:

cacabichieri – carabinieri (afitsant),

cacciare – rubare (o`g`irlik qilmoq),

cago – paura (qo`rquv),

cicamelo – succhiamelo,

dioffa (vodiyliliklar dialekti bo`yicha - diu fauss) dio falso

gaggio – tonto (befaxm),

imbarcarsi – innamorarsi (sevishmoq),

picci- soldi (pul),

purpo - invertito (o`rin almashmoq),

ricottaro – protettore (qo`riqchi),

ruscare – sfacchinare (ertalabdan kechgacha ishlamoq).

⁴ O`zbek xalq iborasi

Kundalik hayotda jargonlar studentlar, umuman, yoshlar nutqida ham sezilib turadi. Bu yoshlar tili ya`ni yoshlar qo`llaydigan jargonlar (gerghi di linguaggio giovanile):

gufare – ridere (kulmoq),

lecchino – adulatore (xushomadgo`y)

truzzo – cafone (erkak)

tosto – forte (kuchli)

pompato – megalomane (страдающие манией величия)

figo togo – bello (chiroyli)

ciula – sciocco (aqlsiz)

ingrifato – eccitato (hayajonli, asabiy)

alluzzare arrapare – eccitare (hayojonlanmoq, asabiylashmoq)

banfare – parlare (gapirmoq)

criccare – morire (o`lmoq)

figato – piacevolezza (yoqimli)

fattone tossico fricchettone – drogato (narkaman)

imbranato – impacciato (qo`pol)

lumare – guardare (qaramoq)

ciospo – brutto (xunik)

sputtanare – svergognare (sharmanda qilish)

sfiga – sfortuna (baxtsiz)

umuman olganda, ma`lum bir guruh va to`da vakillari nutqi uchun xos bo`lgan jargon dialektlarning bir turi sifatida tilda yashash tarzida o`z o`rniga ega. Bular dialektlar sifatida xizmat qilar ekan, ularning fonetik sistemasi hamda grammatik qurulishi nuqtai nazaridan adabiy tildan farq qiladi. Italian tili, va dialektlar o`rtasidagi o`xshashliklar quyidagicha:

Italian tilida: un uomo aveva due figli. Il piu giovane disse al padre;

Italian dialektida (shimoliy venetsiya): un uomo aveva due fili, un giorno il piu piccolo, a deto al sua papa;

Mahaliy tilda (venetsiya): un oma el aveva dofilio. Un giorno il piu gioven che a ditto al so papa :

Dialektlarni o`rganish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Shevalarni o`rganish italiyan adabiy tilining fonetik leksik – grammatik me`yorlarini belgilash uchun, shuningdek, italiyan orfografiya va orfoepiyasini mo`tadillashtirish uchun ham katta yordam beradi.

Italiyan tilida til va dialekt o`rtasidagi farqni belgilovchi mezonlar bo`lib ular 4 guruhga bo`lib o`rganiladi:

1. Siyosiy mezon
2. Sotsiolingvistik mezon
3. Qo`llanish mintaqasi mezon
4. Stilistik mezon

Siyosiy mezon

- dialekt tildagi geografik makonlarni ham o`rganadi
- dialekt huddi lingvistikadagi izoglossa sistemasidek chiziqlarga ega
- izoglossa – lingvistik xaritada: til xususiyatlari bir xil bo`lgan aholi punktlarini birlashtiruvchi chiziqlar

Izoglossa chiziqlari quyidagicha:

✓ **Izofona (fonetik jihatdan)**

- ✓ lat. Ū > [y] gallo romanzlar va italo gallar markaziy g`arbliklar
- ✓ lat. CRŪDU > turin. [kry] `crudo`
- ✓ lat. LŪMEN > ligur. [lyme] `lume`

✓ **Izomorfa (morfologik jihatdan)**

- ✓ o`tgan zamondagi - èst, - èsto, - ist, - isto.
Venetsiyaliklar -dovesto `dovuto`, piovesto `piovuto`.

✓ **Izolessi (leksik jihatdan)**

✓ lat. CRAS > [kraj], [kra] `domani' shimoliy Kalabriya, Lukaniya, Puliya, Salentoliklar

Sotsiolingvistik mezon. Bunda butun bir lingvistik sistema ichida til va dialekt lingvistik sistemaning boshqa yo`nalishlari bilan o`zaro aloqada bo`ladi. Lingvistik sistemaga fonetika, morfologiya, leksikologiya, semantika va sintaksis kiradi. Sotsiolingvistik mezonda til va milliy tilning dominanti ( asosiy belgisi )ni dialekt tashkil etadi. so`zlovchi tilni va dialektni qo`llaganda har ikkalasidan birini bilish darajasiga qarab tanlashi kerak:

- dialektni bilmasdan turib tilni bilmasligi
- dialektni bilib tilni bilmasligi
- dialektni ham tilni ham bilib

Italian tilining sotsiolingvistik holati: dialekt belgilari bo`linib ketadi, dialekt va adabiy til o`rtasida tavofutning mavjudligi, o`tgan va hozirgi zamon dialektlarining hayotiyliigi, milliy til va siyosiy tilning birlashishidir.

Qo`llanish mintaqasiga quyidagicha tarif berishgan italian va ingliz tilshunoslari

“A cluster of interaction situations grouped around the same field of experience, and tied together by a shared range of goals and obligations: e.g. family, neighbourhood, religion, work, etc.”⁵

Bugungi dialekt do`stlar va oila o`rtasida faol bo`lib qolmasdan balki jamiyatning bir bo`lagiga aylandi. Italianing sanoatlashgan shahri bo`lmish Turinda 1900 – yilning 60 – yillarida ishlab chiqarila boshlangan mashinalardan biri Fiatga dialektlarda qo`llanadigan so`zlardan kelib chiqib nom berilgan.

ITALIYAN DIALEKTI VA UNING QO`LLANISHI.

⁵ Mioni, A. M. (1987): “Domain”, in Ammon / Dittmar / Mattheier (acuradi): *Sociolinguistics / Soziolinguistik*, vol. I. Berlin / New York: de Gruyter, pp. 170-178.



XIII asrdan boshlab ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan italiyan dialektlari katta guruhga ajraldi. (2 – xarita italiyan tili dialekti)


1. Shimoliy dialekt – itallo gallar (vodiy qismi, Lombardi, ligur, emiliano – roman), venetsialiklar va istrianlar
2. Toskan dialekti – markaziy, g`arbiy, sharqiy va janubiy guruhlarga bo`linadi
3. Janubiy markaz dialekti – median (markijan, umbria – lazia)
Janubiy o`rta qismiga (abruzezi, shimoliy pullar, moliran, kampani, lukani)

Quyi janubiy qismiga (kalabrezi, janubiy pullar, sitsilia kiradi)

Shimoliy dialekt

Bu guruh Apinin yarim orolining shimoliy qismini o`z ichiga oladi, ya`ni : Shimoliy - g`arbiy hududagi itallo – gallar (vodiy qismi, Lombardi, ligur, emiliano–roman); venetsianing shimoliy - sharqiy qismi; shimoliy dialekt, istirianlar (qadimiy venetsialiklar) va Trieste hududidagi kichik davlatchalar kiradi. Bundan tashqari, Apenin yarim orolining shimolidagi italo - gallar guruhiga Basilikata va Sichilianing shimoliy – sharqidagilar, Sardeniyadagi ligurlar ham kiradi. Shimoliy dialektning o`ziga xos xususiyatlaridan biri unli va undoshlarning qo`llanishidadir.





Ikkilangan undoshlar bir tovushni ifoda etishi	-ll-> -l-	PELLE (M) > Veneto [pele] (it.pelle)
Undosh unlilar o`rtasida kelsa yangi bir tovushni beradi	-t->-d-> o -k->-g->o -p->-v->o	CAUDAM (M)>Lombardo[`koa] (it.coda); MEDICUM (M)>Lombardo[`medeg] (it.medico); CAPILLI>Lombardo [ka`vei] (it. Capelli)
-cl, -gl; ushbu qo`sh undoshlar yangi bir tovushni ifoda etadi	-cl->[tʃ]	CLAMARE > vodiy qismi [tʃa`me] (it. chiamare);
Tish oldi undoshlari oldidan -e, -i, unlilari kelsa, tovush o`zgaradi	[tʃ]>[ts,dz]	CIVITATE(M)>Veneto[tsi`ta] (it.citta)
Vodiy qismda qo`llanadi gan -ct, fransuz tilidagi -it, tovushini beradi	-ct->-it-	LACTE(M)>[`lait] ( it.latte); NOCTE(M)>[`noit] (it. notte)
Biroq Lombardiya va Emilia Romaniyada ushbu -ct, tovushlari boshqacha talafuz qilinadi	-ct->[tʃ]	LACTE(M)>[latʃ] (it.latte) NOCTE(M)>[`notʃ] (it. notte)

DIALETTO LOMBARDO Dalla poesia “ dies irae ” di Emilio guicciardi (in “ poesia dialettale	ITALIANO
---	-----------------

italiana del novecento”, a cura di M. Dell’Arco e P.P.Pasolini) E fa caldo; on cald che smoeuja. Trentanoeuv ! sont masaraa Non si muove neanche una foglia	E fa caldo ; un caldo che ammolisce. Trentanove! Sono disfatto. Non si muove neanche una foglia.
--	--

Toscan dialekti

Toscan dialekti bu guruhga toscan viloyati va yarim orolning shimoliy sharqiy qismi ham kiradi. Italian tilining hamma dialect va shevalari adabiy til tarqqiyotiga maʼlum bir hissa qoʻshgan. Biroq toscan dialekti markaziy oʻrinda turganligi va leksik tomondan oʻzining koʻpgina elementlarini adabiy tilga kiritganligi bois XIII asr oxirda XIV asrlarda asos qilinib olindi.

Fonetik jihatdan farq qilishini koʻrib chiqamiz bunda oxiri unli bn tugagan holatda undosh oʻzgaradi – casa [la hasa]; diftongda – uo, uova, scuola, buona [ova, scola, bona]; sintaktik jihatdan koʻrsatish olmoshi – questo – codesto – quello; leksik jihatdan –spenge - spegne; balocco, busse (percosse), rena (sabbia), cencio (panno); ecc.

Ushbu dialektning oʻziga xos xususiyatlaridan biri undoshlarning qoʻllanishidadir;

-k, tovushi talafuzda oʻzgaradi	-k->[x][h][-]	AMICU (M) >[a`mixo], [a`miho], [a`mio] (it. amico)
-t, -p, tovushlari ham xuddi shunday oʻzgaradi	-t->[θ] -p->[ϕ]	TESTA (M) [θesta] (it. testa); APE(M) [aϕe] (it.ape)
-c, tovushi ham xuddi shunday oʻzgaradi	[tʰ]>[ʃ]	ACETE (M)>[a`ʃeto] (it. aceto);

Toscan dialektini **Devoto Djakomelli (1972)**⁶ boshqa dialektlar tuzilishi bilan solishtirgan holda uni 4 guruhga ajratadi:

- **Markaziy – florensia shevasi;**
- **G`arbiy – ligur shevasi (livornese, pisano, lucchese) va emiliano shevasi (Carrara va Lunijana);**
- **Sharqiy - Arezzo, Val di Chiana va Umbirianing shimoliy g`arbidagi shevalar kiradi;**
- **Janubiy - shimoliy Monte Amiata va Lazio shevalari kiradi.**

1. **FAMILIA (M)**

Famiglia Famiglia

(Florensiya)

2. **PUGNU (M)**

pugno pugno

(Florensiya)

DIALETTO TOSCANO (LIVORNESE)	ITALIANO
Dal giornale satiric in dialetto livornese “ il vernacoliere ”, gennaio 1992 Principia ‘r rinnovamento de’ partiti. I demogristiani s’ arrestano fra loro. (...) piuu di tutto chi c’u rimasto a boccaperta sono stati I sociolisti, che ‘nvidiosi’ ome sono si son messi subito arrestassi l’un l’altro anche fra loro! Ir che, se lipperli ha fatto di a quarcuno che era l’ora di vedŕ finalmente ‘ngattabuia varche trappolone, ha pert anche messo ne` penzieri li studiosi di demodrazia	Comincia il rinnovamento dei partiti. I democristiani si arrestano fra loro. (...) piuu di tutto chi c’u rimasto a bocca aperta sono stati i sociolisti che, invidiosi come sono si sono messi subito ad arrestarsi fra loro! Il che, sul momento ha fatto dire a qualcuno che era l’ora di vedere finalmente in carcere qualche

⁶ Una suddivisione più dettagliata del toscano, che rielabora quella di Pellegrini (1977), in bruni (1984):

1. fiorentino; 2. Senese; 3. Occidentale (pisano\ livornese\ elbano, pistoiese, lucchese); 4. Aretino; 5 grossetano – amiatino; 6. Apuano.

	delinquent, ha pero anche messo nei pensieri gli studiosi di democrazia
--	---

Janubiy markaz dialekti




Janubiy dialektga yarim orolning janubida yashovchilar, Sitsilia oroli va geografik joylashuviga binoan markaziy qismdagi va janubdagi viloyatlar kiradi.. ushbu yirik dialect o`z navbatida 3 guruhga bo`linadi;

1. Janubiy markaz – median (markijan, umbria – lazia)
2. Janubiy o`rta qismiga (abruzezi, shimoliy pullar, moliran, kampani, lukani)
3. Quyi janubiy qismiga (kalabrezi, janubiy pullar, sitsilia kiradi)

Ushbu dialektning ham o`ziga xos xususiyatlaridan biri undoshlarning qo`llanishidir;

Undoshlarning asimilatsia holati -nd,-mb-> -nn-mm [w]	Quando >[`qwanno] (it.quando)
-pl>[k]	PLUS>[kju] (it.pium)
-bl>[dd]	NEBULA>[nedda] (it.nebbia)
-ll>[dd]	BELLU(M)>siciliano[beddo] (it.bello)



DIALETTO NAPOLETANO	ITALIANO
Dalla canzone “ Napule n ” di Pino Daniele (1977)	
DIALETTO LUCANO Dalla poesia “ Nun chiange ”, di Albino Pierro, nato a Tursi, in provincia di Matera (Basilicata) nel 1916 (in cartelle a lui stue, 1973) Che sagne chiamu chiamu Avi tra i esse pronte E tu sar ca nun si sùle	ITALIANO Napoli n mille colori Napoli n mille paure Napoli n la voce dei bambini Che sale piano piano Dovrei essere pronto E sai che non sei solo
E nun ci sùu, Eppure nun change: Si nganne mi sente strinte, Guarde fisse na petre E ci trese dainte.	E non lo sono Eppure non piango Se nella gola mi sento stretto Guardo fisso una pietra E ci penetro dentro
DIALETTO SICILIANO Dalla poesia “ Lingua e dialettu ” di Ignazio Buttitta, nato a Bagheria, in provincial di Palermo, nell 1899 (in “ Io faccio il poeta ”, 1972)	ITALIANO

Un populu	Un popolo
Mittitilu acatina	Mettetelo in catene
Spugghiatilu	Spogliatelo
Attuppatichi avucca,	Tappategli la bocca
И ancora liburu.	И ancora libero.
Livatici u travagghiu	Toglietegli il lavoro
U passaportu	Il passaporto
A tavula unni mancia	La tavola dove mangia
U lettu unni dormi,	Il letto dove dorme,
И ancora riccu.	И ancora ricco.

Italian badiy asarlari va sh`eriy janrlarida qo`langan mahalliy dialektlarni ko`rishimiz mumkin.

Italiyan reklamalarida ⁷ Italiyan adabiy tili va dialekti qo`langan:

1. “ Adès le nùster lasagna i pièsen perfin ai napoletàn ”.
2. La cucina regionale italiana ci ha messo I suoi grandi piatti. Findus la sua grande esperienza. Ecco le ricette del sole. Specialità gusto es, “ solari ”, preparate con le migliori materie prime, come l`olio extravergine d`olive e tagli di carne di prima scelta.

3. “ so`nu sfizio ”



Piatti unite d`Italia



Pubblicità di un prodotto per la csa che serve per togliere la luce alle finestre

⁷ Pubblicata sulla rivista femminile “ Grazia ” del 17.3.1993.

(qui si usa il vocabolo “ tapparelle ”, dette anche “ serrande ”, “ avvolgibili ”, “ persiane ” al posto dei geosinonimi).⁸



Italia dialekti angvistik l va uviga ko`ra
quyidagicha tasnif qilinadi: (3 xarita)

Franco – provenzale (val d`Aosta va Piemonte, **provenzale** (piemonte occidentale ¹⁰); **gallo – italico**: ligure, yuqori va quyi vodi, Lombardo (occidentale, orientale ¹¹, alpino, novarese, trentino occidentale, ladino) emiliano (occidentale , orientale, mantovano, vogereze – pavese, lunigiano, romanlar, shimoliy markigianlar); **venetlar** (lagunare, janubiy, shimoliy markaz, veroneze, triestino – giuliano, trentino orientale, ladino – Veneto); **ladino** (atezino, cadorino); **friulano** (centro – orientale, sudtirolese occidentale va orientale, pustero); **sloveno** (zelian di Val Canale, reziano, Valle della Torre e del Natisone, carsico); **toscane** (fiorentino, sneeze, occidentale: pisano – livornese – elbano, pistoiese, lucchese, Aretino, grossetano – amiatino, apuano); **mediano** (marchigiano centrale: anconitano, manceratese; umbro: settentrionale, meridionale, occidentale e viterbese, meridionale, orientale, laziale: centro settentrionale, romanesco, cicolano – reatino – aquilano); **meridionale intermedio** (marchigiano meridionale – abruzzese: meridionale, terameno, abruzzese orientale adriatico e occidentale; molisano; pugliese: dauno – appenninico, garganico, apulo barese; laziale meridionale e campano: laziale meridionale, napoletano, irpino, cilentano; lucano – calabrese settenrionale: lucano nord occidentale, nord orientale, centrale, lucano,

⁸ Dalla rivista “ Gioia Casa ”, marzo – aprile 1997.

⁹ Vodi qismi

¹⁰ G`arbiy

¹¹ sharqiy

calabrese, settentrionale); **meridionale estermo** (salentino, calabrese centro meridionale, siciliano: occidentale, centro, sud orientale, messinese, eoliano, isola di Pantelleria); **lugudorese** (nuorese, lugudorese settentrionale, barbaricino); **campidanese; sassarese – gallurese** .

Yarim orol dialektining lingvistikasi Yugoslavia (slovan dialekti); in minoranze serbo – croate del molise, greche nella Calabria meridionale (bova, galliciano, amendolea, condofuri, roghudi, roccaforte) e salentoda (castrignano, corigliano, calimera, martano, martignano, melpignano, soleto, sternatia, zollino); albanesi sbruzzoda, moliseda, Campania, Basilicata, Puglia, Calabria (spezzano, vaccarizzo) e sicilia (piana degli albanesi). Alghero (catalano); foggia, faeto va celle (franco – provenzale) viloyatlarida, Cosenza, Guardianing vodiy qismi (provenzale); va italianing settentrionale (Tedesco) boshqa hududlarida roman tilida so`zlashmaydi.

Italian tilshunoslari til va dialekt o`rtasidagi yaqinlikni aniqlash uchun 5 asosiy turga bo`lgan:

- a) Diakronika (davr, vaqt)** – bunda o`tgan va hozirgi Italian tili va dialekti.
- b) Diatopik (geografik)** - bunda adabiy til, dialect, etnolingvistika;
- c) Diastratik (jamiyat)** – rasmiy til, jargonlar, mahaliy lahjalar;
- d) Diafizik (yozma)** – gazeta, jurnal, qo`lyozmalar;
- e) Diamezik (aloqa)** - uzoq masofali muloqot, radio televidenia ;

Ushbu 5 tur asosida Italian tilshunoslari ilmiy ishlar olib borgan. Ular De Mauro, Trumper, Maddalon, Sanga, Sabatini va Berrutolardir .

Sanga 1978 - yilda diafizikani o`rganib chiqqan;

Trumper madalon 1982 yilda diamezikadagi yozma va og`zaki adabiy til o`rtasidagi farqni o`rganib chiqqan;

Sabatini 1985- yilda diafizika va diamezikani, mahalliy tildan mahalliy lahjani farqlab berdi;

Spitzer va Nension toscan dialekti va emigrantlar tilini umumxalq tilida ishlatilishini asoslab berdi;

Berruto 1987 – yilda til va dialect o`tasidagi yaqinlikning 5 asosiy turini asoslab berdi. Biz buni tushunishimiz oson bo`lishi uchun chizma asosida ko`ramiz:

(chizma)

De Mauro 1980 – 1989 yillarda til va dialektdagi **diamezik va diafazik** holatini o`rganib chiqib muhim tomonlarini umumlashtirdi.

Italian tilini va dialekti

Italian tili mahalliy lahjalar

Italian adabiy tili mahalliy shevalar

Italian umumxalq tili

Dialektlardagi grammatik holatlar

Morfosintaktik jihatdan

Shimoliy dialektida

- Qarindoshlikni ifodalab keluvchi so`zlar oldidan artikl ishlatilmaydi: **mia mamma, mio papa.**
- Olmosh fe`lni oldidan ham oxiridan ham kelishi mumkin: **mi devi telefonare, devi telefonarmi.**
- **Quando, mentre, dopo** vaqt ravishlaridan keyin **che** bog`lovchisi qo`llanadi: **mentre che viene.**
- Ko`rsatish olmoshi kishilik olmoshi o`rnida ham qo`llanishi mumkin:

Quella ragazza qui.

Toskan dialektida

- Birlikda ishlatiladigan kishilik olmoshi ko`plikda ham ishlatiladi, bu butun bir Italiyan dialektlarida ishlatiladi: **lui arriva domani, paga lei, loro non mi hanno ancora telefonato.**
- So`zlardagi qisqartmalar: **anda` - andare, vede` - vedere, parti` - partire,**
- Passato remoto zamonida **dare (fe`li )** fe`li II shaxs birlikda **dasti – desti** bo`lib ishlatiladi:

Janubiy - markaziy dialektida

- Kishilik olmoshi oldidan a artikli keladi: **ho chiamato a lui - ho chiamato lui.**
- Olmosh fe`lni oldidan ham oxiridan ham kelishi mumkin: **mi devi telefonare - devi telefonarmi.**
- **Avere** yordamchi fe`li o`rnida **tenere** fe`li ishlatiladi:
tengo fame – ho fame
- **Essere** yordamchi fe`li o`rnida **stare** fe`li ishlatiladi: **qui non ci sta niente da fare - qui non c'è niente da fare.**
- Hozirgi zamon o`rnida imperfetto congiuntivo¹² ishlatiladi: **che la smettesse! - che la smetta!**

Leksik jihatdan

Leksik ma`nosi	Italiyaning shimoliy qismida ishlatiladigan so`zlar	Toskanada ishlatiladigan so`zlar	Italiyaning janubiy qismida ishlatiladigan so`zlar
Oshxona jixozi taom pishirish uchun mo`ljallangan kichik idish	Teglia, tegame, testo, pirofila	Teglia, tegame, pirofila	Teglia, Ruoto, Tiella
Metal va boshqa narsalardan yasalgan derazaning yig`ma pardasi	Tapparella, Avvolgibile, serranda	serranda	Tapparella, Persiana, serranda
Bolalar ovunchog`i	giocattolo	Balocco, gicottolo	Gioco, pazziella, gicottolo
Meva turi (ko`k	Melone	popone	Mellone,

sariq, qizil, yashil)			melone
Ulovlardagi va bosh qa joylardagi o`rindi	sedia	Seggiola, sedia	Sedia, seggia

2. ITALIYAN DIALEKTINI TASNIF QILGAN TILSHUNOSLAR VA ULARNING ILMIY ISHLARI

Biz italiyan dialektlari va ularning o`ziga xos ayrim xususiyatlari, fonetik va morfologik xususiyatlariga ko`ra bir – birlari bilan yaqinlashadigan va ayni vaqtda bir – birlaridan farq qiladigan dialektal guruhlar haqida tasavvurga egamiz.

Italiyan dialektlari dialektologlar va tilshunoslar tomonidan turlicha tasnif qilingan. Bu sohada italiyan dialektologlari va tilshunoslari Franchesko Cherubini (1789-1851), Pietro Monti (1794-1856), Gabriele Rosa (1812-1897), Carlo Tenca (1816-1883) Carlo Cattaneo (1801-1869), Bernardino Biondelli (1804-1886). Giovenale Vegezzi - Ruscalla (1799-1883), Clemente Merlo (1879-1960), Gerhard Rohlfs (1892-1986), Giovan Battista Pellegrini (1921-3.2.2007) Graziadio Izaia Ascoli (1829–1907) larning tasnifi diqqatga sazovardir. Biz mazkur tilshunoslarning tasniflarini xronologik tartibda ko`rib chiqamiz.

Italiyan dialektlarining tarqalish chegaralari italiyan xalqining tarqalishi bilan bog`liq. Italianlar, demak italiyan dialektlari ham asosiy ko`pchiligi Italiyada, Fransiyada, Janubiy Germaniyada, Gretsiyada, Ispaniya hududlarida tarqalgan. Demak, shu yerlarda italiyan dialektlari qadimdan shakllangan va hozirgacha turlicha rivojlanish bosqichlarini kechrib kelmoqda. Bu katta hududda juda qadimdan yirik – yirik madaniyat markazlari bo`lgan. Tarixdan yaxshi ma`lumki, italiyan dialektlari ham asta – sekin ma`lum xududlar bo`yicha yirikroq, umumiyroq to`dalarga birlashib, tashkil topib, har xil dialekt zonalari bo`yicha rivojlanib borishi davomida turli tillarning ta`siriga uchragan. Shunga qaramay, o`zining eng yuqori rivojlanish bosqichi bo`lgan yagona milliy til darajasiga ko`tarilgan. Bu - uzoq davrlar mahsuli, albatta. Qadimda odamlarning urug` - qabila bo`yicha yoki o`zlariga biron

tomondan (masalan, ishlab chiqarish va xo`jalikning biror sohasi bo`yicha) yaqin bo`lgan qavmlar bilan birga qishloq – qishloq bo`lib shaharlarda esa mahalla – mahalla tarzida joylashganligini ham hisobga olish kerak. Su tarzdagi joylashish va o`rtoqlashish ham davrlar o`tishi bilan ma`lum bir kichik – kichik dialektlarning yoki o`sha xududda umumiy bo`lgan fonetik yoki morfologik xususiyatlarning paydo bo`lishiga olib kelgan, albatta.

Dialektolog olimlar va tilshunoslar faoliyati.

Dante Alighieri (*Dante Aligyeri*) ([1265](#)— 13/14 sentabr [1321](#)) — italyan shoiri. Kech o`rta asrlar madaniyatining sintezi berilgan "[Komediyani](#)" yaratuvchisi (keyinchalik [Boccaccio](#) unga "Ilohiy" epitetni beradi).

- [1306](#)—[1321](#) [Ilohiy komediya](#) — Divina Commedia (it.):
 - [Do`zah](#),
 - [Mahshargoh](#),
 - [Jannat](#)
- [1304](#)—[1307](#) Convivio (it.) Bazm
- [1304](#)—[1306](#) De vulgari eloquentia libri duo (lot.) Xalq so`zamolligi haqida, traktat (Dubia)
- Egloghe (lot.) Ekloglar
- Epistulae (lot.) Nomalar
- Il fiore (it.) Gul, Roza haqidagi Roman (Roman de la Rose) ga asoslangan 232 sonetdan iborat epik doston. XIII asrning fr. allegorik romani
- [1310](#)—[1313](#) Monarchia (lot.)
- Detto d'amore (it.) Detto d'Amore Roza haqidagi Roman (Roman de la Rose) ga asoslangan epik doston. Monarhiya, traktat
- Quaestio de aqua et de terra (lot.) Suv va yer haqidagi savol. Dubia
- [1295](#) Vita nuova (it.) Yangi hayot
- Rime (Canzoniere) (it.) She`rlar
 - Florensiya davrining she`rlari:
 - *Sonetlar*
 - *Kansonlar*

- *Ballada va stanslar*
- Surgunda yozilgan sheʼrlar:
- *Sonetlar*
- *Kansonlar*
- *Tosh xonim haqida sheʼrlar*
- Xatlar

Tullio De Mauro (Torre Annunziata, 1932 – yil 31 – mart)

Tullio De Mauro Rimdagi “ Julio Kezare ” oʻrta maktabni tugatgach, klassik litseyida oʻqigan. Oʻqishni rimdagi til va adabiyot universitetining til falsafasi boʻlimida davom ettiradi. 1957 - yilda italiyaning boshqa uiversitetlarida (Napoli, Palermo, Kieti Salemo) oʻqituvchilik qiladi. 1967 – yilda professorlik unvonini oladi. Tullio De Mauro Ferdinand de Sassyurning “ Umumiy tilshunoslik kursi ” asarini tarjima qiladi. 1969 – 1997 - yillarda “ Umumiy tilshunoslik falsafasi ” boʻlimi prezidenti etib tayinlandi.

Maurizio Dardano

Maurizio Dardano (Rim, [13 dicembre 1935](#) yil) uning ilmiy faoliyatini umumiy tilshunoslik boʻlimining sintaksis tarixi, leksikologiya, morfologiya va ommaviy axvorot vositalari tilida koʻrishimiz mumkin. U Rimdagi La Sapienza Universiteti ([Università degli Studi di Roma La Sapienza](#))da oʻzining bitiruv malakaviy ishi “ Italiyan tili tarixi ” ni yoqlaydi. Universitetni tamomlagach Peruja Milliy Universitetida fonetika fanidan oʻqituvchilik qiladi. 1965 yilda dotsentlik, 1966 – 1974 yilda “Italiya tarixi ” nomli ilmiy ishida professorlik unvonini yoqlaydi. U italiyaning koʻpgina universitetlarida oʻqituvchilik qiladi va koʻpgina xalqaro ilmiy konfrensiyalarda oʻzining ilmiy ishlari bilan qatnashadi. Oilali u Isa Basso ([Isa Basso Dardano](#),) bilan turmush quradi, Isa Basso Rimdagi Universitetidan birida fransuz adabiyoti tarixi fanidan oʻqituvchi professor, qizi [Paola Dardano](#) Sieyna universitetida tilshunoslik fanidan oʻqituvchi dotsent.

Uning ilmiy ishlari :

- XIII asr yozuv tili va texnikasi (*Lingua e tecnica narrativa nel Duecento*, (Rim 1969)
